

**MAHALLALARDA MILLIY SPORT O'YINLARINI TASHKIL ETISHNING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Jo'rareva Munisa Furqatovna

Psixologiya va xorijiy tillar instituti

Psixologiya(faoliyat turlari) yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Usbu maqolada, mahallalardagi olib borilayotgan tashkiliy ishlar bilan bir qatorda milliy sport o'yinlarini ham tashkil etish va shu bilan birga bunday faoliyatni olib borishda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga alohida e'tibor berish lozimligi haqida so'z yurutilgan.

Kalit so'zlar: Mahalla, jamoatchilik, milliy sport, sport o'yin, ijtimoiy-psixologiya.

Annotation: In this article, it is said that, along with the organizational work carried out in the neighborhoods, it is necessary to organize national sports games and, at the same time, to pay special attention to the social and psychological characteristics of such activities.

Key words: Neighborhood, community, national sport, sports game, social psychology.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что наряду с организационной работой, проводимой в микрорайонах, необходимо уделить особое внимание социально-психологическим особенностям организации национальных спортивных игр.

Ключевые слова: микрорайон, община, национальный вид спорта, спортивная игра, социальная психология.

Bizga ma'lumki sport sog'ligimiz va hayotimizda juda katta ahamiyat kasb etadi. Doimiy sport bilan shug'ullangan insonning tashqi ko'rinishi kelishgan, sog'lom, baquvvat, asosiysi sog'lom fikrlovchi bo'ladi. Insonlarga yoshlikdan kundalik badantarbiyalar, sog'lom ovqatlanish mezonlariga amal qilish haqida tavsiya va maslahatlar berib boriladi. Sport inson organizmi, uning fikrlashi, xotirasi va boshqa muhim faoliyatlarida asosiy rol o'ynaydi. Sport – sog'lik garovi ekanligi hech birimizga sir emas. Ayniqsa o'z milliyligimizda tashkil etilgan milliy sport o'yinlari ham yo'q emas. Ular ham sport turlariga kiradi, Ushbu sportlar bizning madaniyatimizni o'zida aks ettiradi. O'zbek milliy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan xalq jismoniy madaniyati jismonan baquvvat yangi avlodni shakllantirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini yaratishda alohida ijtimoiy-psixologik o'rin tutadi. O'rganilgan ilmiy-uslubiy va maxsus manbalarning tasdiqlashicha, ajdodlarimizning madaniy taraqqiyoti ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va maishiy

rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bu esa MSO‘lar xalqimizning etnik madaniy turmush tarzi, jismoniy madaniyati bilan uyg‘unlikda taraqqiy etib kelganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ajdodlarimiz MSO‘larining tarixiy taraqqiyotini, sport o‘yinlariga nisbatan shakllangan milliy psixologiyani turli ijtimoiy tuzumlar davridagi madaniyat, milliy psixologiya, ma’rifat, tarixiy voqealar hamda an’analardan alohida ajratib o‘rganib bo‘lmaydi.

O‘zbek xalq o‘yinlarining paydo bo‘lish tarixi va taraqqiyotini tadqiq qilishda shu kungacha saqlanib kelgan qadimiy me’morchilik (yunon, rim, arab, fors mualliflarining qo‘lyozmalari, turkiy bitiklar) obidalari va amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi (epos, doston, rivoyat, afsona, topishmoq, o‘yin, raqs, musiqa va boshq.) namunalarining natijalarini kontent-tahlilga jalg etish g‘oyat muhimdir.

O‘zbek xalq o‘yinlarining paydo bo‘lishi bizning eramizgacha bo‘lgan davrga, aniqrog‘i, ibridoiy jamoa tuzumi davriga to‘g‘ri keladi. Buni tarixiy, arxeologik, etnografik, folkloristik va boshqa manbalar to‘la-to‘kis isbotlaydi. Qadimgi rim yozuvchisi Elianning guvohlik berishicha, ajdodlarimiz bo‘lgan saklar qabilasida MSO‘lari musobaqalari juda keng tarqalgan va ular xalqning sevimli mashg‘uloti sanalgan. Uning ta’kidlashicha, saklar qabilasining yigitlari ana shu o‘yinlar musobaqasida o‘zlari yenggan qizlarga uylanish huquqini olganlar. Yunon tarixchilari qoldirgan ma’lumotlarga qaraganda, bir vaqtlar O‘rta Osiyo hududlarida yashagan qadimgi qabilalar mushtlashishni yaxshi biladigan mohir jangchilar, ya’ni, harbiy salohiyatga ega bo‘lgan kishilar bo‘lgani qayd qilinadi. O‘zbek xalq o‘yinlari ijtimoiy ehtiyoj tufayli qadimda vujudga kelgan. O‘zbek xalq o‘yinlari mazmunan g‘oyatda boy, shaklan xilma-xil bo‘lib, muayyan ijtimoiy - tarixiy tavsifga egadir.

Tarixiy, arxeologik va etnografik manbalarda xalq o‘yinlarining kelib chiqishi hamda rivojlanishiga doir qiziqarli ma’lumotlarni uchratamiz. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”, Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Kaykovusning “Qobusnama”, Umar Hayyomning “Navro‘znama”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Lisonut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, Zayniddin Vosifiyning “Nodir voqealar”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, “Temurnoma”, Zahiriddin Boburning “Boburnoma” va boshqalar, shuningdek, Oybekning “Alisher Navoiy” tarixiy romani, “Bolalik qissasi”, Pirimkul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Mirmuhsinning “Temurmalik”, Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” va shu kabi tarixiy-ilmiy, badiiy asarlarda MSO‘ning paydo bo‘lish tarixi va rivoji to‘g‘risida asosli ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Xalqimizning ajoyib dostoni “Alpomish”da tirandozlik haqida so‘z boradi. Chunonchi, - “Hakimbek 7 yoshga kirgan edi. Oltinboy bobosidan qolgan 14 botmon birinchdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shu yetti yashar bola Hakimbek 14 botmon

yoyni qo‘liga ushlab, ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi. Askar tog‘ining katta cho‘qqisini yulib o‘tdi...”. Dostonning asosiy qahramonlaridan bo‘lgan Barchin erga tegish uchun 4 ta shart qo‘yadi. Sharhlarning ikkitasi o‘q-yoy otish bilan bog‘liq. Masalan, ikkinchi shart: yoy tortishsa yoy sinmay qolganga men tegaman, shu yoy andoz polvonga - deydi. Uchinchi shart: ming qadamdan tanga pulni urganga, men tegaman shul qarchig‘ay merganga. Zayniddin Vosifiyning hikoya qilishicha, - “Navro‘z Ahmad kamandorlikda shu darajaga yetdiki, bironta pahlavon uningdek kamon tortolmasdi. Uning yoy-o‘qi dushman ko‘ziga borib yetmay, tinchimasdi; kamon tortgan vaqtida falak qavs chillaxonasidan turib tahsinga og‘iz ochardi. O‘qi tortilgan vaqtida burchaklardan “Ofarin!” ovozi ko‘tarilardi.

Xalqimiz orasida ot bilan bog‘liq “Ko‘pkari uloq”, “Poyga”, “Qiz quvmoq”, “Ag‘darish”, “Ot ustida qilichbozlik”, “Qovoq o‘yini”, “Chavgon” kabi xalq o‘yinlari ko‘plab o‘tkazilgan. Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma” asarida uloq so‘zini ko‘p ishlatgan. Al-Maqsudiy qurbanayi haqida yozganda: - “Bayram kunlari Jurjonlik bilan Bedrabortliklar o‘rtasida tuya kallasini qo‘lga kiritish uchun tortishuv bo‘ladi”, singari ma’lumotlar qoldirgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan milliy sportlarni mahallalarda tashkil etish mahalla fuqarolari o‘rtasida ko‘zga ko‘rinarli darajda ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlar keltirib chiqaradi. Mahalla fuqarolari bir biri bilan sport o‘yinlarida bellashishlari, kimdur bir qo’shnisiga ruh berib qarsak chalib uni qo’llaydi, yana boshqasi hali tanib ulgurmagan qo’shnisi bilan tanishishga ulguradi, bu qo’shnilar o‘rtasidagi rishtani yanada yaqinlashtiradi va ularni bir biriga inoq qilib qo‘yadi. Ularning o‘rtasidagi munosabat ijtimoiylashganida psixologik nuqtai nazardan olib qaralganda har bir qo’shni, mahalla fuqarosi ruhan sog’lomlashadi, va ushbu mahallad sog’lom munosabatga asoslangan muhit hosil qiladi.

Eng qadimiylar xalq o‘yinlari namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha ilgari paydo bo‘lgan. Shu sababdan, ayrim o‘yinlarda so‘z yetakchi bo‘lsa, boshqalarida o‘yinning ayrim unsurlari ustun turadi. Ana shu tariqa mehnat va jismoniy mashqlarning yuzaga kelishi ijtimoiy taraqqiyot tufayli turli o‘yinlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. An’ana - shaxslararo munosabatlarni tashkil etishning, jamoa ijodkorligining mahsuli, shu bilan birga, o‘yinlarni jamoa holida o‘ynashni saqlab qolishning ham o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy zavqi, estetik didi bor ekan, o‘yin hamisha shu xalqona estetik tamoyilga amal qilib yashaydi. Bu o‘yin uchun ob’ektiv qonuniyatdir. Keyingi davrlarda yaratilgan o‘yinlarda garchi an’anaviy xalq o‘yinlariga xos epiklikka, mavzularga asosiy urg‘u berilsada, biroq, bu endi an’anaviy xalq o‘yinlaridagidek g‘ayritabiiylik asosida emas, balki, ob’ektivlikka asoslangan holda ifodalananadigan bo‘ldi. An’anaviy xalq o‘yinlarining ideal qahramonlari g‘ayritabiiy kuchlar madadkorligida harakat qilib g‘alaba qozonsa, yangi, zamonaviy o‘yinlarning qahramonlari mavjud tarixiy shaxslar

bo‘lib, ular hozirgi voqelikka suyanib, harakat qiladi va ko‘zlangan maqsadlarga erishadi.

Shunday qilib, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e’tiqodlar animistik hamda totemistik tasavvurlar, qarashlar bilan vujudga kelgan. O‘yinlarning tabiiy - tarixiy paydo bo‘lish asosi va taraqqiyoti mehnat jarayoni bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin. O‘yining ilk boshlang‘ich ko‘rinishi ibtidoiy jamiyatda sinkretik (qorishiq) san’at sanalib, insonning mehnat va kundalik faoliyatini ifodalagan. Ularning qaysidir turi bilan shug‘ullanish insonlarning xarakter sifatlari, temperament xususiyatlari orqali aks etgan. Bu o‘yinlar jismoniy faoliyatning mustaqil turi sifatida muayyan darajada jamiyatning sog‘lom ijtimoiy hayot tarzini belgilagan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ko‘pgina mamlakatlar olim va pedagoglari o‘yinlar mohiyatini, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti va ahamiyatini psixologik hamda ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganmoqdalar. Shunga ko‘ra, o‘yinlarning mohiyati va kelib chiqishini ifodalovchi turli hil nazariyalar, fikr va qarashlar ishlab chiqilgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, milliy sport o‘yinlari xalqimiz madaniyati va etnopsixologiyasini yorqin namoyon etuvchi milliy qadriyatlar sifatida alohida, muhim ahamiyatga ega. Ushbu milliy an’ana va qadriyatlar namunasidan mahallalarda yoshlar bilan milliy sport o‘yinlarini tashkil etish va shu orqali ularni ma’naviyatli, jismonan baquvvat hamda sog‘lom etish tarbiyalash soha mutaxassislarining asosiy maqsadi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiypsixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.
2. Olimov L.Ya., Bahronova M.O. O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
3. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo’llanma. O‘quv qo’llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo’llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
5. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
6. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.